

**Nogironligi bo'lgan yoshlarga o'qish,
yashash va transport xarajatlarini
qoplash bo'yicha
USLUBIY QO'LLANMA**

TOSHKENT-2025

Nogironligi bo'lgan yoshlarga o'qish, yashash va transport xarajatlarini qoplash bo'yicha uslubiy qo'llanma.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. 21 bet.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan yoshlarga o'qish, yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratishning tartibini belgilab beradi.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, tizimidagi tashkilotlar, mahalla yettiligi hamda soha mutaxassisleri uchun mo'ljallangan bo'lib, nogironligi bo'lgan yoshlarga o'qish, yashash va transport xarajatlarini qoplash ma'lumotlarini ishonchli, to'liq va samarali yuritishda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

MUNDARIJA:

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR.....	4
UMUMIY QOIDALAR	5
SUBSIDIYA AJRATISH TARTIBI.....	5
ILOVALAR	5

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-son qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-iyundagi "Nogironligi bo'lgan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 341-son qarori	

UMUMIY QOIDALAR

Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) mablag'lari hisobidan nogironligi bo'lgan yoshlarga nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunar o'rgatish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti, umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rgatish, zarur hollarda yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratilishini sodda va ravon tilda tushuntiradi

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:



ariza beruvchi — subsidiya ajratishni so'rab murojaat qilgan o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan (o'ttiz bir yoshga to'lmagan) nogironligi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, O'zbekiston Respublikasi hududida yashash guvohnomasiga ega bo'lgan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs (o'n olti yoshga to'lmagan shaxs nomidan murojaat qilgan uning qonuniy vakili);



kasb-hunarga o'rgatish — nogironligi bo'lgan yoshlarni tegishli yo'nalish bo'yicha zarur bilim, malaka va kasbiy ko'nikmaga ega bo'lishi uchun o'quv dasturlari asosida kasbiy

faoliyatga yo'naltirishga qaratilgan o'qitish shakli;



nodavlat ta'lim tashkiloti — qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ta'lim faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan, nogironligi bo'lgan yoshlarga kasb-hunar o'rgatish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti, umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rgatish faoliyatini amalga oshiruvchi nodavlat ta'lim tashkiloti;



shartnoma — kasb-hunarga o'rgatish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti, umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rgatish to'g'risida nodavlat ta'lim tashkiloti va ariza beruvchi o'rtasida tuziladigan bitim. Bunda shartnomada o'quv kursi muddati va kurs uchun har oylik va umumiy to'lov miqdori, kursning jami davomiylik muddati ko'rsatilgan bo'lishi lozim;



o'qish xarajati uchun subsidiya — nogironligi bo'lgan yoshlarga nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunar o'rgatish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti hamda tegishli umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rgatish uchun ajratiladigan subsidiya;

yashash va transport xarajati uchun subsidiya — nogironligi bo'lgan yoshlarga ularning nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunar o'rganishi, ularda kasbiy ko'nikmalarning shakllantirilishi, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti, umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rganishi davrida yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun ajratiladigan subsidiya.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan nogironligi bo'lgan har bir yoshga uning talabiga muvofiq **bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha** bo'lgan miqdorda subsidiya ajratiladi.

O'qish xarajatlari uchun har oyda ajratiladigan subsidiya miqdori:

- 📌 kasb-hunarga o'rgatish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti uchun BHMning besh baravaridan;
- 📌 umumta'lim fanlari uchun BHMning uch baravaridan;
- 📌 xorijiy tillarni o'rgatish uchun BHMning uch baravaridan ko'p bo'lmasligi lozim.



Bunda ariza beruvchiga faqat bir turdagi o'quv kursida 12 oydan oshmagan muddatda o'qish uchun subsidiya ajratiladi.



Transport xarajatlari uchun ajratiladigan subsidiya miqdori, shu jumladan yo'l hujjatlari mavjud

bo'lmaganda, har bir kilometrga bazaviy hisoblash miqdorining **0,2 foizidan** oshmasligi lozim.



Bunda kilometr miqdori **500 metr** va undan ortiq bo'lgan hollarda — ko'p tomonga, kilometr miqdori 500 metrdan kam bo'lgan hollarda — kam tomonga yaxlitlanadi.



Yashash xarajatlari uchun ajratiladigan subsidiya miqdori bir sutkada ijarada yashash uchun bazaviy hisoblash miqdorining o'n foizidan oshmasligi lozim.



Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 4-oktabrdagi 617-son qarorida belgilangan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning xorijiy tillar va umumta'lim fanlari bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'qish xarajatlarining bir qismini hamda ular bo'yicha milliy sertifikatlar olish uchun o'tkaziladigan imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplab berishga **nisbatan tatbiq etilmaydi.**



Subsidiya har yili arizalar topshirish ketma-ketligi bo'yicha ushbu Qaror talablariga to'liq mos kelgan **500 nafar nogironligi bo'lgan shaxsga ajratiladi.**

Joriy yilda 500 nafar talabgorga subsidiya ajratilgandan so'ng subsidiya berish uchun ariza **qabul qilish to'xtatiladi.**



Subsidiya ajratilgunga qadar, biroq ketma-ketligi bo'yicha subsidiya ajratilgan talabgorlardan keyin ariza topshirgan shaxslar keyingi yil uchun ro'yxatga qo'yilmaydi hamda subsidiya olish uchun kelgusi yilda yangidan murojaat qiladi.



Ajratilgan subsidiyalar soni haqidagi ma'lumotlar Agentlik tomonidan yoshlarportali.uz elektron platformasiga doimiy ravishda kiritib boriladi.



Muqaddam hududiy yoki tuman (shahar) "Yoshlar daftari" jamg'armalari mablag'lari hisobidan o'quv kurslarida o'qish xarajatlari uchun subsidiya ajratilgan ariza beruvchilarga ushbu Reglamentga muvofiq o'qish, yashash va transport xarajatlari uchun subsidiya ajratilmaydi, oliy ta'lim tashkilotidagi o'qishi uchun to'lov-kontrakt summasi to'lab berilgan talabalar bundan mustasno.

SUBSIDIYA AJRATISH TARTIBI

Ariza beruvchi subsidiya olish uchun istalgan davlat xizmatlari markaziga murojaat qiladi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (keyingi o'rinlarda — YIDXP) davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tadi.

Ariza beruvchining murojaatiga asosan davlat xizmatlari markazi xodimi ariza beruvchining nomidan, YIDXP orqali murojaat qilinganda — esa ariza beruvchi mustaqil ravishda quyidagi so'rovnomalarni elektron tarzda to'ldiradi va hujjatlarni ilova qiladi:

O'qish xarajati uchun subsidiya ajratish bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish uchun SO'ROVNOMA

Ariza t/r	Qabul qilish sanasi	Qabul qilgan shaxs
-	-	-
I. Ariza beruvchi (jismoniy shaxs) haqida ma'lumot:		
1.1. F.I.O.:	-	
1.2. Tug'ilgan sanasi:	kun/oy/yil	
1.3. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR):	-	
1.4. Telefon raqami:	-	
1.5. Yashash joyi:	Tuman (shahar), viloyat, respublika	
1.6. Ta'limni tashkil etuvchi nodavlat ta'lim tashkiloti STIR:	(ma'lumot kiritiladi)	
1.7. O'quv kursining turi:	-	

1.8. O'quv kursining umumiy muddati:	-
1.9. O'quv kursining bir oylik to'lov miqdori:	(ma'lumot kiritiladi)
II. Nogironligi bo'lgan o'n olti yoshga to'lmagan shaxs va uning qonuniy vakili haqidagi ma'lumot:	
2.1. O'n olti yoshga to'lmagan shaxsning F.I.O.:	-
2.2. Tug'ilgan sanasi:	kun/oy/yil
2.3. Tug'ilganlik haqidagi guvohnoma raqami:	-
2.4. Bolaning qonuniy vakili F.I.O.:	-
2.5. Shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR):	-
2.6. Nogironligi bo'lgan bolaning qonuniy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat:	(ilova qilinadi)
2.7. Telefon raqami:	-
2.8. Yashash joyi:	Tuman (shahar), viloyat, respublika

O'qish davrida yashash va transport xarajatlari uchun subsidiya ajratish bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish uchun

SO'ROVNOMA

Ariza t/r	Qabul qilish sanasi	Qabul qilgan shaxs
-	-	-
I. Ariza beruvchi (jismoniy shaxs) haqida ma'lumot:		
1.1. F.I.O.:		-
1.2. Tug'ilgan sanasi:		kun/oy/yil
1.3. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR):		-
1.4. Telefon raqami:		-
1.5. Yashash joyi:		Tuman (shahar), viloyat, respublika
1.6. Ariza beruvchi ta'lim olayotgan nodavlat ta'lim tashkiloti STIR		-
1.7. O'quv kursi turi		-

1.8. Yo'l xarajatlari to'lovlarini tasdiqlovchi hujjatlar (mavjud bo'lsa)	(ilova qilinadi)
1.9. Yo'l xarajatlari miqdori	(ma'lumot kiritiladi)
1.10. Ijara shartnomasi nusxasi	(ilova qilinadi)
1.11. Ijara shartnomasining soliq organlarida hisobga qo'yilganligi haqida bildirishnoma nusxasi	(ilova qilinadi)

Ilova qilinadigan hujjatlar:

a) o'qish xarajatlari uchun subsidiya olishda:

agar ariza o'n olti yoshga to'lmagan nogironligi bo'lgan bolaning qonuniy vakili tomonidan berilsa, uning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSH SHIR) va bolaning qonuniy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat;

b) yashash va transport xarajatlari uchun subsidiya olishda:

transport xarajatlarini qoplash so'ralganda — yo'l xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlarning elektron nusxalari (agar mavjud bo'lsa, "pdf" yoki "jpg" formatda);

yashash xarajatlarini qoplash so'ralganda — ijara shartnomasi va uning soliq organlarida hisobga qo'yilganligi haqidagi bildirishnomaning elektron nusxasi (agar mavjud bo'lsa, "pdf" yoki "jpg" formatda). Bunda ijara shartnomasida ko'rsatilgan uy manzili nodavlat ta'lim tashkiloti joylashgan tuman (shahar) hududida joylashgan bo'lishi kerak (Toshkent shahri hududi bundan mustasno).

Ariza beruvchidan ushbu bandeda ko'rsatilmagan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim qilishni talab qilish qat'iyan taqiqlanadi.

Taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning to'g'riligi va haqqoniyligi uchun ariza beruvchi javobgar hisoblanadi.



Nogironligi bo'lgan yoshlarning nogironligini tasdiqlovchi hujjatlar Agentlik tomonidan Ijtimoiy himoya milliy agentligining axborot tizimlari orqali elektron shaklda olinadi.

Ariza beruvchi o'zi kelib murojaat etganda, davlat xizmatlari markazlari tomonidan so'rovnoma to'ldirilgandan so'ng ariza beruvchi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi.



So'rovnoma ERI yoki tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya va boshqalar) bilan tasdiqlanishi mumkin.



Ariza beruvchi davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat etgan taqdirda, uning so'rovnomasi to'ldirilib tasdiqlangandan so'ng o'n daqiqa mobaynida, YIDXP orqali murojaat etganda, avtomatik tarzda Agentlikka elektron shaklda yuboriladi.



Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida bosh tortish huquqiga ega. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan bosh tortganda, uning so'rovnomasi ko'rilmadan qoldiriladi.



Davlat xizmati bepul ko'rsatiladi.

Ariza Agentlik tomonidan o'n besh ish kunida ko'rib chiqiladi hamda quyidagi shartlar to'liq bajarilganda, ariza beruvchi subsidiya ajratishning keyingi bosqichiga o'tadi:



a) o'qish xarajatlari uchun:

- ✚ ariza nazarda tutilgan hujjatlar to'liq taqdim etilganda;
- ✚ ariza beruvchi ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlar ro'yxatida, shuningdek, narkologiya dispanseri hisobida turmasa;
- ✚ ariza beruvchida nogironlik mavjud bo'lsa;
- ✚ ariza beruvchi o'qish istagida bo'lgan nodavlat ta'lim tashkilotida tegishli yo'nalish bo'yicha o'qitish vakolati mavjud bo'lsa;
- ✚ shartnomaning bir oylik to'lov miqdori va o'qish davomiyligi belgilangan summalardan va muddatdan oshmasa;
- ✚ ariza beruvchi muqaddam mazkur subsidiyalardan birini olmagan bo'lsa;

b) yashash va transport xarajatlari uchun:

- ✚ ariza bilan nazarda tutilgan hujjatlar to'liq taqdim etilganda;
- ✚ ariza beruvchiga Agentlik tomonidan o'qish xarajatlari uchun subsidiya ajratish haqida SMS-xabarnoma yuborilgan bo'lsa;
- ✚ o'qish, yashash va transport xarajatlari uchun so'ralgan subsidiyaning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan oshmasa;

Ariza beruvchi muqaddam ushbu nazarda tutilgan subsidiyalardan birini olmagan bo'lsa.

Ariza beruvchi ushbu bandeda belgilangan talablarga mos kelmaganda Agentlik tomonidan unga tegishli kamchiliklar ko'rsatilgan holda SMS-xabarnoma yuboriladi.

Ariza beruvchi SMS-xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilgan holda ushbu Reglamentda belgilangan tartibda subsidiya ajratishni so'rab qayta murojaat qilishi mumkin.



Agentlik uch ish kunida:

ariza beruvchiga subsidiya ajratish haqida elektron tizimga ma'lumot kiritadi va bu haqida ariza beruvchiga SMS-xabarnoma yuboradi;

nodavlat ta'lim tashkiloti joylashgan hududdagi mahallaning yoshlar yetakchisi zimmasiga ariza beruvchining nodavlat ta'lim tashkilotida o'qishini (ijara shartnomasida ko'rsatilgan manzilda yashashi, o'qish joyiga tegishli transportda qatnashini) joyiga chiqqan holda monitoring qilish vazifasini yuklaydi.

O'qish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya olishga hujjat topshirgan ariza beruvchiga yuborilgan SMS-xabarnoma uni nodavlat ta'lim tashkilotiga o'qishga qabul qilish va o'qishni boshlashi uchun kafolat hisoblanadi.

Agar ariza beruvchi ushbu SMS-xabarnomani olgan paytdan boshlab 90 kun ichida o'qitish haqidagi shartnomani tuman

(shahar) yoshlar ishlari bo'limiga taqdim etmasa va ushbu muddat ichida o'qishni boshlamasa, unga subsidiya ajratish rad etiladi.



Monitoring natijasida mahalladagi yoshlar yetakchisi tomonidan besh ish kunida ariza beruvchiga subsidiya ajratish haqida tavsiya yoki ajratishni rad etish haqida xabarnoma tayyorlanadi hamda tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limiga elektron shaklda yuboriladi.



Nodavlat ta'lim tashkiloti ariza beruvchini o'qitish bilan bog'liq xizmat ko'rsatilganligi to'g'risida har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-kuniga qadar hisob-fakturani o'zi joylashgan hududdagi tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limiga elektron shaklda yuboradi.

Tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limi ikki ish kunida yoshlar yetakchisining tavsiyasi va nodavlat ta'lim tashkilotining hisob-fakturasini ilova qilgan holda ariza beruvchiga tegishli subsidiya ajratish yoki ajratishni rad etish to'g'risida Agentlikka so'rov yuboradi.

Mahalladagi yoshlar yetakchisi tomonidan ariza beruvchiga subsidiya ajratishni rad etish haqida xabarnoma berilgan bo'lsa, tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limi bu haqida elektron tizimga ma'lumot kiritadi va ariza beruvchiga SMS-xabarnoma yuboradi.

Agar mahalladagi yoshlar yetakchisi ariza beruvchiga subsidiya ajratishni rad etish haqida asossiz ravishda xabarnoma bersa, ariza beruvchi nodavlat ta'lim tashkilotida ta'lim olgan (yashash va (yoki) transport xarajati uchun subsidiya ajratishni

so'rab murojaat qilgan ariza beruvchi yashash va (yoki) transport uchun xarajat qilgan) bo'lsa, tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limi uning murojaatini qanoatlantirish to'g'risida tavsiya berish huquqiga ega bo'ladi.

So'rov asosida Agentlik ariza beruvchiga subsidiyani to'lash yoki to'lashni rad etish to'g'risida besh ish kunida qaror qabul qiladi, bu haqida elektron tizimga ma'lumot kiritadi hamda ariza beruvchiga SMS-xabarnoma yuboradi.

Subsidiyani to'lash to'g'risida qaror qabul qilinganda Agentlik:

o'qish xarajatlari uchun subsidiyani tuman (shahar) bo'limi hisobvarag'iga, tuman (shahar) bo'limi esa — nodavlat ta'lim tashkilotining hisobvarag'iga o'tkazadi;

yashash va transport xarajatlari uchun subsidiyani tuman (shahar) bo'limi hisobvarag'iga, tuman (shahar) bo'limi esa ariza beruvchining bank kartasiga o'tkazadi.

ILOVALAR

O'qish xarajatlari uchun subsidiya ajratiladigan xorijiy tillar va umumta'lim fanlari RO'YXATI

Xorijiy tillar	
1.	Ingliz tili
2.	Nemis tili
3.	Fransuz tili
4.	Ispan tili
5.	Italyan tili
6.	Turk tili
7.	Koreys tili
8.	Yapon tili
9.	Xitoy tili
10.	Arab tili
11.	Fors tili
12.	Hind tili
13.	Pushtu tili
14.	Dariy tili
Umumta'lim fanlari	
1.	Ona tili va adabiyot (o'zbek tili va adabiyoti, qoraqalpoq tili va adabiyoti)
2.	Rus tili va adabiyoti
3.	Tarix
4.	Kimyo
5.	Biologiya
6.	Geografiya
7.	Matematika
8.	Fizika
9.	Informatika

Nogironligi bo'lgan yoshlarga o'qish xarajatini qoplash uchun subsidiya ajratish SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddati
1-bosqich	Nogironligi bo'lgan yosh fuqaro	Nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunarni o'rganish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti, umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rganish xarajati uchun subsidiya ajratishni so'rab tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlariga murojaat etadi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tib murojaat qoldiradi.	O'qishni boshlashdan oldin
2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. YIDXP	So'rovnoma va unga ilova qilingan hujjatlarni Yoshlar ishlari agentligiga yuboradi.	1. 10 daqiqa ichida 2. Avtomatik tarzda
3-bosqich	Yoshlar ishlari agentligi	Taqdim etilgan hujjatlar va ulardagi ma'lumotlar to'liq va asosli ekanligi tasdiqlanganda ariza beruvchiga subsidiya ajratilishi haqida elektron tizimga ma'lumot kiritadi, bu haqida ariza beruvchiga SMS-xabarnoma yuboradi hamda nodavlat ta'lim tashkiloti joylashgan hududdagi mahallaning yoshlar yetakchisining zimmasiga ariza beruvchining nodavlat ta'lim tashkilotida o'qishini monitoring qilish vazifasini yuklaydi.	Hujjatlar kelib tushganidan so'ng 15 ish kunida

		Taqdim etilgan hujjatlar yoki ulardagi ma'lumotlar to'liq bo'lmaganda, bu haqida elektron tizimga ma'lumot kiritadi va ariza beruvchiga subsidiya ajratish rad etilganligi haqida SMS-xabarnoma yuboradi.	
		Nodavlat ta'lim tashkiloti joylashgan hududdagi tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limining so'rov xatiga (ariza beruvchi va nodavlat ta'lim tashkiloti va tuman (shahar) yoshlari ishlari bo'limi o'rtasida tuzilgan ariza beruvchini o'qitish to'g'risidagi shartnoma ilova qilingan) asosan o'qitishning to'liq davri uchun subsidiya mablag'larini tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limining hisobvarag'iga o'tkazadi.	Ariza beruvchiga subsidiya ajratilishi tasdiqlan gandan so'ng 5 ish kunida
4-bosqich	Tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limi	Har oylik o'qitish xizmati ko'rsatilgandan so'ng nodavlat ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim etilgan ariza beruvchiga o'qitish xizmati ko'rsatilganligi to'g'risida hisob-faktura hamda mahalladagi yoshlar yetakchisining ariza beruvchining o'qishini monitoring qilish natijalari bo'yicha ijobiy tavsiyasiga asosan subsidiyani nodavlat ta'lim tashkilotining hisobvarag'iga o'tkazib boradi.	Hisob-faktura va ijobiy xulosa kelib tushgandan so'ng 3 ish kunida
		Ariza beruvchi o'qishni davom ettirmagan hollarda (o'qish oraligida davolanish uchun vaqtincha o'qishga bormagan hollar bundan mustasno) ushbu ariza beruvchining o'qish xarajati uchun ajratilgan subsidiya mablag'larini Agentlik markaziy apparatining tegishli g'azna hisobvarag'iga qaytaradi.	Ariza beruvchi o'qishni davom ettirmasligi aniqlangan paytdan boshlab 10 ish kunida

QAYDLAR UCHUN

[illegible]